



Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi



KASBIY TA'LIM
AGENTLIGI



INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

📅 2026 🎓 Psixologiya kursi

Alimova Gulmira Kabuljanovna

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi

REJA:

01 Psixologik-pedagogik yondashuv (Fundamental)

02 Metodik va texnologik yondashuv (Zamonaviy)

03 Ijtimoiy-kommunikativ yondashuv (Muhit yaratish)



1

Psixologik-pedagogik yondashuv (Fundamental)

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishning nomativ-huquqiy asoslari



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



“Ta'lim to'g'risidagi” qonun

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori

Vazirlar Mahkamasining “**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**” 2019-yil 14-maydagi 391-son qarori

Vazirlar Mahkamasining “**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**” 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori

Vazirlar Mahkamasining “**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**” 2024-yil 4-oktabrdagi PF-152-sonli Farmoni

Inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim.



Hamma uchun teng imkoniyatlar

Inklyuziv ta'lim har bir bolaning jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun teng sharoitlar yaratadi.



Individuallikni qabul qilish


U turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarning o'ziga xosligini tan olishga va ularni qabul qilishga undaydi.



Ijtimoiy rivojlanish

Boshqa (sog'lom) o'quvchilar bilan o'zaro aloqa o'rnatish bolalarda empatiya, hamkorlikda ishlash va ma'lumotlarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.


Ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun yondashuv xaritasi



Inklyuziv ta'lim jarayoni ishtirokchilari (maktab misolida)



Maktab direktori;
inklyuziv ta'lim sinfi
o'qituvchisi;



maxsus pedagog;
yordamchi xodim (assistent-
o'qituvchi);



maktab psixologi;

maktab jismoniy tarbiya fani
o'qituvchisi;



tibbiyot xodimi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning tibbiy tashxislari (asosiy guruhlari)

Eshitishida nuqsoni bor bolalar: Axborotni asosan ko'rish (vizual) orqali qabul qilishadi. Ular uchun labdan o'qish, imo-ishora tili va ko'rgazmali qurollar asosiy muloqot vositasidir.

Ko'rishida nuqsoni bor bolalar: Dunyoni eshitish, ushlab ko'rish (taktil) va hid bilish orqali anglashadi. Brayl alifbosi va audio-materiallar ular uchun bilim manbai hisoblanadi.


Nutqida nuqsoni bor bolalar: Intellekti joyida bo'lsada, fikrini og'zaki bayon qilishda qiynalishadi. Bu ularda tortinchoqlik yoki tashqi muloqotdan qochishni keltirib chiqarishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori haqida batafsil ma'lumot berilgan <https://lex.uz/uz/docs/-6779571>.





Intellektual rivojlanishi o'ziga xos bolalar: Bunga aqliy zaiflik yoki o'rganishdagi qiyinchiliklar (masalan autizm spektri) kiradi. Ular ma'lumotni sekinroq o'zlashtiradi va oddiy mantiqiy zanjirlarni qurishda yordamga muhtoj bo'ladi.

MUHIM ESLATMA  Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tibbiy taxshisi va ular bilan ishlash tamoyillarini tushunish uchun avvalo "nuqson" tushunchasiga emas, "imkoniyat va moslashuv" tushunchasiga e'tibor qaratish lozim. Har bir guruhning o'ziga xos dunyoqarashi va axborotni qabul qilishi farqli hisoblanadi.

Mening alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchim bor bor...

- ❑ Bolaga ta'lim muassasasi muhitini tanishtiring.
- ❑ Boshqa (sog'lom) o'quvchiga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolangizni tanishtiring.
- ❑ Xona (guruh, dars, mashg'ulot) dagi shovqinni iloji boricha kamaytirishga e'tibor bering.
- ❑ O'quvchiga ko'nikmalarni oddiydan murakkabga tamoyilda o'rgatish tartibiga e'tibor bering.

- ❑ O'quvchingizni guruhlarda, mashg'ulotlarda boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashga undang.



- ❑ O'quvchingiz bilan muloqotda iloji boricha salbiy ifodalardan foydalanmang (*yo'q, qilma, tegma, bunday emas, noto'g'ri...*).

- ❑ Agar u do'stlariga va o'ziga zarar yetkazadigan darajada bo'lmasa, noo'rin xatti-harakatlariga e'tibor bermang.



- ❑ Xona ichidagi harakatlaringizni so'z bilan ifodalang (*Masalan: men ekran orqali sizlarga taqdimotni ko'rsatmoqchiman*).

- ❑ O'quvchining bilimini tengdoshlari bilan taqqoslash o'rniga, ularning individual rivojlanishini hisobga olgan holda rag'batlantiring.

- ❑ O'quvchiningizning yutuqlarini baholashda e'tiboringizni u qila olmaydigan narsaga emas, balki qila oladigan amallariga qarating.

- ❑ O'quvchini mashg'ulot vaqtida fikrini bo'lmaslik, diqqatini jamlash maqsadida ortiqcha o'quv materiallarni chetga olib qo'ying, dars oxirida yoki kun oxirida ular bilan tanishishga ruxsat bering.

2

Metodik va texnologik yondashuv (Zamonaviy)

Universal dizayn tamoyillari:

Darsni hamma uchun tushunarli qila olish san'ati.



Foydalanishda teng imkoniyatlar ta'minlash



Moslashuvchanlik va xilma-xillik



Oddiylik va tushunarlilik



Past jismoniy kuch talab etilishi

Yordamchi texnologiyalar:

O'quvchi va o'quv maqsadi o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlashga xizmat qiladi.



Funksionallik va zaruriylik



Foydalanish uchun qulayligi va soddaligi



Moslashuvchanlik va o'suvchanlik



To'siqsiz muhit

Inklyuziv ta'limda differensiallik:

Mazmuni differensiallash



Bola **nimani** o'rganishi kerakligini uning imkoniyatiga qarab moslashtirish. Ma'lumot darajasi bolaning intellektual salohiyatiga qarab o'zgaradi.

Jarayonni differensiallash



Bola ma'lumotni qanday o'zlashtirishini turli shakllarda tashkil etish.. Bu o'quvchining axborotni qanday qabul qilishiga (ko'rish, eshitish, harakat) bog'liq.

Yakuniy mahsulotni differensiallash



O'quvchi o'rgangan bilimni qanday namoyish etishini tanlash imkoniyati. Hamma bir xil test topshirishi shart emas.


O'quv muhitini differensiallash



Sinfda yaratilgan muhit va bu muhitni bolaning ruhiy va jismoniy holatiga moslashtirish.

Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlari hamda o'quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha talablar ishlab chiqildi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMYI-METODIK
MARKAZI
100011, Toshkent shahar, Slavyanovlar tumani,
Navoiy ko'chasi, 30-97
web-sayt: www.tim.uz, e-pochta: tim@exat.uz



REPUBLICAN SCIENTIFIC AND
METHODOLOGICAL CENTER FOR
THE DEVELOPMENT OF EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
30, Navoi street, Slavyanovlar district,
Tashkent, 100011
web-site: www.tim.uz, e-mail: tim@exat.uz

2025-y. "08" may
№ 01-02/3-231

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi, viloyatlar va
Toshkent shahar hokimliklariga**

Ma'lumot uchun:

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligiga**

**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligiga**

**O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligiga**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qaroriga muvofiq, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga (keyingi o'rinda-Markaz) maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari hamda o'quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini Markaz talablariga muvofiq jihozlash bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Markaz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan takliflar inobatga olingan holda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixolog xizmat xonalari hamda inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar" ishlab chiqilib, Markazning 2025-yil 5-maydagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

IJRO.GOV.UZ tizimni orqali ЭРМИ bilan tasdiqlangan, Hujjat kod: NP42760747


Yuqoridagilarga asosan, Siz rahbarlik qilayotgan hududda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixolog va maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashda Markaz tomonidan tasdiqlangan Talablarni inobatga olishingizni so'raymiz.

Ilova: 18 v.

Direktor v.v.b.  Y.Risyukova



Ijrochi: A.Nazirov
Tel.: (99) 519-02-02 (1023)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI




PSIXOLOG XIZMAT

XONALARINI JIHOZLASHGA
QO'YILADIGAN TALABLAR



Toshkent-2025 1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI




MAXSUS PEDAGOG

XIZMAT XONALARINI JIHOZLASHGA
QO'YILADIGAN TALABLAR

TOSHKENT-2025



Inklyuziv ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim sinfi hamda fan o'qituvchilarining vazifalari

Inklyuziv ta'lim sinflarida o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi;

o'quvchilarning bilimlari ulardagi nuqsonlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlariga muvofiq baholanadi;

ta'lim-tarbiya jarayoni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejasi va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi;
inklyuziv ta'lim sinflaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati olib boriladi.

- bolalarning xilma-xilligini, ularning xususiyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda o'qish texnologiyasini tashkil etish;
- bolaga o'quv faoliyatida o'zini topishga va uning atrofidagi dunyo haqida turli xil bilimlarni olishga yordam berish;
- individual qobiliyatlarni ochib berish;
- mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirish;
- bolalar bilan o'zaro munosabatlarning samarali usullarini topish.

Noto'g'ri


Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bir vaqtda bir necha topshiriq berish

02

Noto'g'ri

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga topshiriqni og'zaki berish (avval bajarib ko'rsating)

04



01

Tog'ri

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tibbiy tashxisi hamda shaxsiy qobiliyatidan kelib chiqib topshiriq tanlash

03

Tog'ri

Berilgan topshiriqni bajarish uchun bittadan uchtagacha ko'rsatma berish

05

Tog'ri

Topshiriq bajarilishi jarayonida o'quvchini qo'llab-quvvatlash (vaqt chegaralamaslik)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

ASOSIY RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI TA'LIM XIZMATLARI BOG'LANISH

UZ

RU

EN



15

TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZINING

YAGONA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI VA XIZMATLARI PORTALI

TA'LIMDA METODIK YORDAM KO'RSATISH EKOTIZIMI

Q Kalit so'zni kiriting...

QIDIRISH

3

Ijtimoiy-kommunikativ yondashuv

01

Sinfda tolerantlik muhitini shakllantirish:

Boshqa (sog'lom) o'quvchularni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan do'stona muloqotga tayyorlash.

02

Yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)lar hamkorligi:

Maxsus pedagog, yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi), psixolog bilan ishlash mexanizmi.


03

Ota-onalar bilan hamkorlik:

“Ta'lim muassasa-bola-oila” zanjirining ahamiyati.



Inklyuziv ta'limning afzalliklari



Inklyuziv ta'lim natijasida bolalar to'laqonli o'z oilalari bilan muntazam vaqt o'tkazishlari va emotsional to'yingan holda yashash imkoniyatiga ega bo'ladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zlarini teng his qila oladi va shuning natijasida ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga uchramaydi.



Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalarning yoshligidanoq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ijobiy va adekvat munosabat shakllanishiga yordam beradi.

XULOSA



Bilimlarni yangilash

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha bilimlarni doimiy ravishda oshirish, yangi tadqiqotlar va seminarlarda ishtirok etish.



Ijodiy yondashuv

Har bir bolaning alohida ehtiyojlariga mos ravishda ijodiy va moslashuvchan bo'lish.



Hamkorlikni kengaytirish

Pedagog kadrlar, ota-onalar va soha mutaxassislar bilan samarali hamkorlikni mustahkamlash.



Empatiya va qo'llab-quvvatlash

Bolalarga nisbatan empatiya bilan yondashish va ularga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish.



Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi



KASBIY TA'LIM
AGENTLIGI

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!
